



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 16-yanvar, payshanba,

6 (24.032)-son

O'zbek xalq
maqoli

Vatani borning
baxti bor,

Mehnati
borning - taxti

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

YASHIL RIVOJLANISH MODELI SARI DADIL QADAM

Shu kunlarda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi (<http://muhokama2025.uz/>) va uni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (<http://muhokama2025.uz/farmon>) loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, takliflar olinmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiysi Samarqand viloyat, shahar va tumanlar partiya tashkilotlari, faollari, elektorat vakillari, partiyadan saylangan deputatlar tomonidan ham bu jarayonda faol ishtirok etib, o'z takliflarini bildirmoqda. Shuningdek, davlat dasturi loyihasida belgilangan maqsad va chora-tadbirlar aholiga tushuntirilmoxda.

Dasturda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'shishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish, mahallalarning ekologik qiyofasini o'zgartirish, ko'chalarда yashililik darajasini oshirish, ekologik jihatdan quyl va farovon yashash muhitini shakllantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar belgilanganmoqda.

Partiyamizning saylovoldi dasturida belgilangan qator ustuvor vazifalar davlat dasturidan o'rin olganligi barchamizni xushnud etadi.

Xususan, dasturga ko'ra, Samarqand va Farg'onada viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonalari tashkil etilishi, aholi uchun piyoda va velosiped yo'laklarida va o'simliklarni ekiş orqali "Soyali sayr ko'chalar" tarmog'i yaratilishi, sohil va daryo bo'yalarida 80 ta infratuзilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog'omlashtirish yo'laklar qurilishi sog'om turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir sutka davomida kamida o'n ming qadam yurishni targ'ib qilish, yuqori ko'rsatkichlarga erishganlarga "Ekofoal fuqaro" maqomini berish hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan banklarda iste'mol kreditini olishda chegirma taqdim etilishi, oilaning barcha voyaga yetgan a'zolari "Ekofoal fuqaro" maqomini oglanda, ushbu oilaga "yashil oila" maqomini berish hamda ularga h yili lotereya orqali 14 ta elektrumobilni yutuq sifatida taqdim etish tartibi joriy etiladi.

Plastik qadoqlarni yoki plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda import qiluvchilarga "taralarni qaytarish",

ushbu turdag'i chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus joylar va uskunalarini o'rnatish orqali yig'ib olish va utilizatsiya qilish yoki utilizatsiya yig'imini to'lash bo'yicha ken-gaytirilgan majburiyatlar joriy qilinadi.

Ko'p yillik tajribalardan kelib chiqqan holda Davlat dasturi loyihasiga quyidagi takliflarni kiritishni lozim deb hisoblaymiz. Birinchidan, aholi sifatlari va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yuzasidan davlat dasturi ijrosini o'z vaqtida va sifatlari ta'minlash maqsadida chorvachilikda naslichikni rivojlanish masalasi alohida e'tibor qaratish zarur.

Bugungi kunda dehqon va fermer xo'jaliklari, klasler korxonalar tomonidan mahalliy zotli qoramol va mayda shoxli hayvonlari parvarishlash ishlari olib borilmoqda. Ammo ularning mahsulordagi xarajatga nisbatan kam bo'limoqda. Shu bois chet davlatlardan naslli chorva mollarini keltirish va nasli oshlini tizimli asosda yo'iga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, atrof-muhit musaffoligini saqlashda qo'riqxonalarni asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Sababi, qo'riqxonalar va milliy bog'larda qizil kitobga kiritigan, yo'qolib ketish hafvi yuqori bo'lgan hayvonot va o'simlik dunyosi mavjud.

Uchinchidan, "Chiqindizsiz texnologiya"ga o'tish davri keldi. Hozirgi vaqtida chiqindilarni utilizatsiya qilish oqibatida atmosferaga katta miqdorda zaharli gazlar chiqarilmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash natijasida kompos tayyorlanib, mazkur biologik mahsulotlardan yerga ishliv berishda mahalliy o'g'it sifatida foydalanish mumkin.

Davlat dasturi loyihasiga beradigan taklif va munosabatlar "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lamli maqsad va vazifalarni joriy yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirishga xizmat qiladi.

Baxtiyor ABDULLAYEV,
O'zbekiston Ekologik partiysi
viloyat kengashi ijroiya qo'mitasi
raisi, viloyat Kengashi deputati.

O'ZBEK TILI O'QITUVCHILARI

YANGI YILNI KO'NGILSIZ BOSHLADI

2025-yilning 1-yanvardan boshlab umumta'lim maktablarida milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili o'qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylig ustama haq to'lanishi kerak edi. Bu haqda Respublika Prezidenti O'zbek tili bayrami munosabati bilan yo'ilagan bayram tabrigida ma'lum qilgandi.

Ammo Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2025-yil 1-yanvardan boshlab ona tili va tarix fani o'qituvchilariga milliy sertifikat uchun 50 foiz ustama to'lash to'g'risida 2024-yil 19-dekabr kuni hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari ko'rsatma xat yuborgan. Shundan so'ng o'zbek tili o'qituvchilar bunday taqsimotni adolatsiz deb topib, vazirlik va boshqa tashkilotlarga o'z norozligini bildirgan.

Aslida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesi qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida gi farmoni 12-bandiga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan berilgan milliy sertifikatga ega ona tili va adabiyot hamda tarix fani o'qituvchilariga 50 foiz miqdorda ustama to'lanishi belgilangan. Farmon matniga negadir o'zbek tili kiritilmagan.

Ammo Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 29-maydag'i "Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida gi qarorida o'zbek tili va adabiyot fanidan olgan sertifikat ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili (davlat tili) fanidan dars beruvchi pedagoglar uchun bir xil amal qilishi belgilangan. Oddiy tushuntiradigan bo'lsak, o'zbek sinflariga ona tili va adabiyot fanidan dars

beradigan o'qituvchilar, rus va qardosh tilli sinflarga o'zbek tilidan dars beradigan o'qituvchilar milliy sertifikat uchun bir xil imtihon topshirgan. Imtihon dan o'tganlarga milliy sertifikat berilgan.

O'zbek tili fani o'qituvchilarini tahririyatimizga ham shu masalada murojaat yo'lladi. Xatning mazmuni quyidagicha:

"O'zbek tili o'qituvchilarini ham ona tili o'qituvchilarini singari to'lov qildi, ular bilan bir xil test topshirdi. Hatto o'zbek tili fani o'qituvchilarini uchun biroz murakkab bo'lgan mumtoz adabiyotga doir testlarni ishladi. Vaholanki, test topshirishga kirgan ona tili fani o'qituvchilarining ko'pchiligi yetarli ball to'play olmasda, o'zbek tili fani o'qituvchilarini o'z ustida ishlab, oilasidan, farzandlaridan vaqt ajratib, sertifikat olish uchun harakat qildi va maqsadlariga qizinchilik bilan erishdi.

P/S: Xo'sh, ona tili bilan o'zbek tilidan milliy sertifikat uchun bir xil test olinsa, o'qituvchilarga bir xil savollar berilsa, nega endi ularga ikki xil ustama berilishi? Haqiqatda ham o'zbek sinflariga ona tili grammatikasini o'qitishdan ko'ra, rus va qardosh tillarga o'zbek tili grammatikasini o'rgatish qiyin-ku! Qolaversa, milliy sertifikatni ham hamma o'qituvchi ololmaydi. Biz pedagoglarini sertifikatiga qarab rag'batlantirishni yo'iga qo'yayotgan bo'lsak, birini ikkinchisidan ajratmasligimiz kerak emasmi? Nazarimizda, o'zga tilli sinflarga davlat tilini o'rgatayotgan o'qituvchilar ham 50 foizi ustamaga munosib.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bu masalani yana chuqur o'rganib, adolatli yechim topadi, degan umiddamiz. Aslida bir xil mehnatga ikki xil haq to'lanmaydi.

Viloyatimizda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.
Dastlab viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev boshchiligidagi viloyat faollari Amir Temur maqbarasida yig'ilib, o'tganlar ruhiga Qur'on tilovat qildi.

VATAN HIMOYACHILARI SHARAFLANDI



Shundan so'ng viloyat va shahar hokimliklari, huquq-tartibot idoralari vakillari hamda harbiyalar quraxtchanan va puxta qurollangan quadratli kuchga aylandi. O'z navbatida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib sharoitlarni yaratish borasida ham salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, 2024-yilda viloyatimizdagи 3664 nafar harbiy xizmatchining oila a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 35 nafariga bepul davolash uchun yo'llanmalar berildi. 589 nafar harbiy xizmatchiga yangi qurilgan ko'p qavatlari uylardan imtiyozi ipoteke kreditlari asosida uy berildi. Xizmat burchini bajarish chog'ida vafot etgan harbiylarning oila a'zolari-

qiyofasi va salohiyati tubdan o'zgardi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi, sarhadlarimiz daxsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan harakatchan va puxta qurollangan quadratli kuchga aylandi. O'z navbatida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib sharoitlarni yaratish borasida ham salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, 2024-yilda viloyatimizdagи 3664 nafar harbiy xizmatchining oila a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 35 nafariga bepul davolash uchun yo'llanmalar berildi. 589 nafar harbiy xizmatchiga yangi qurilgan ko'p qavatlari uylardan imtiyozi ipoteke kreditlari asosida uy berildi. Xizmat burchini bajarish chog'ida vafot etgan harbiylarning oila a'zolari-

ga alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatib kelinmoqda.

Tadbirda bir guruh harbiy xizmatchilar, huquq-tartibot idoralari xodimlari hokimlikning faxriy yorliq hamda tashakh-kurnomalari bilan taqdirlandi.

— Vazifam yosh kursantlari malakali harbiy xizmatchi etib tarbiyalash, — deydi O'zbekiston Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazi katta yo'riqchisi Vohid Boltayev. — Kasbimni yaxshi ko'raman, shogirdlarni orasida na'muna qilib ko'rsatiladiganlari ko'p. Bugun shu xizmatlarini yugori baholab, viloyat hokimi tomonidan taqdirlandim. E'tirof mas'uliyatni oshiradi.

Tadbir ishtirokchilari uchun konsert dasturi namoyish etildi.

A.BAROTOV.

DARG'OM

kanali bo'yida sayyoqlik va dam olish maskanlari tashkil etiladi

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-novabrda "Samarkand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlanish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bu yil viloyatga 5 million mahalliy, 2,5 million xorijlik sayyojni jaib qilish re-jalashtirilgan. Buning uchun turizm infratuзilmasini rivojlanish, yangi sayyoqlik obyektlari tashkil etish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish choralar ko'riladi.

Jumladan, viloyatning 9 tumanidagi 14 ta mahallani "turizm qishlog'i"ga aylantirish ko'zda tutilgan. Tog'li va so'lim tabiat qo'yinda joylashgan bu hududlarning infratuзilmasini yaxshilash, sayyoqlarning dam olishi va maroqli horliq chiqarishi uchun quylay sharoit yaratish bo'yicha xorij tajribasi asosida dastur ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Suv inshootlari va ular atrofdan samarali foydalanishga qizig'li chiqarishi uchun 35,7 kilometr masofada ko'ngilochar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariдан iborat turistik marshrut tashkil etiladi.

Urgut, Toyloq, Samarkand, Past Darg'om tumanlari va Samarkand shahri hududidan o'tgan kanal bo'yidagi muhofaza hududlari 20-40 metr etib belgilanib, yer maydonlari belgilangan tartibda elektron onlays aukcion savdolariga qo'yildi.

Shuningdek, kanallarda ko'p funksiyali ko'priklar qurish loyihalari amalga oshirishga ham e'tibor qaratiladi. Ya'ni, bu ko'priklar xorijdagagi singari savdo va ko'ngilochar maskanlar bo'ladi.

Dastlab Narpay kanalining Kattaqo'rg'on shahri hududidan o'tgan qismida tashabbuskor investor mablag'lari hisobidan gastronomik ko'prik majmuasini qurish rejalashtirilgan. Gastronomik ko'prik tunu kun faoliyat ko'rsatadi va unda yengil konstruksiysi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etiladi.

Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish va tizimli yo'lg'a qo'yish maqsadida Samarkand viloyati hokimligi huzurida "Daryo va kanallar bo'yini infratuзilmasini rivojlanish direktisiyasi" tuzildi.

X.ERNAZAROVA tayyorladi.



KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

dastur qanday amalga oshirilmoqda?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

NATIJALAR YANGI KUCH BERADI...

O'tgan yili 98 ming 420 ta kambag'al oilaning 72 ming 738 nafar a'zosi barqaror va daromadli ishga joylashtirildi.

Bunda 18 mingdan ko'proq aholi vakili tadbirkorlikka jalg etish orqali band qilingani ahamiyatli. Qo'shrabot tumani Yuqori Jo'sh mahallasiida 30 ta oilaga "Navobod naslli parranda" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan nogironligi bo'lgan Oysara Xidirovaga elektron nogironlik aravachasi olib berildi. Eng muhim, o'g'li "Sam stroy invest" MChJga ishga qabul qilindi. Qizi o'quv kurslariga jalg qilinib, to'lovlar to'landi.

Bundan tashqari, 3 ming 310 nafar fuqaroning yashashi sharoiti yaxshilanadi. Jumladan, "Samarcand Diyora lyks" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan Qo'shrabot tumani Yangiqishloq mahallasida 3 ta xonadonga quyosh panelari o'rnatildi.

"Ismatov'S Family Market" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan Nurobot tumani Navro'z mahallasiida yashovchi fuqaro Gulnoza Qanoxatovaga yangi ujoy qurib berildi.

Mahallalarda 5757 ta oilaning infratizilmasi yaxshilandi. Misol uchun, Nurobot tumani Arabota mahallasiida tadbirkorlar tomonidan 1 ta suv inshooti va 3 kilometr ichimlik suv tarmogi' qurib berildi.

FAOLIYAT TAHЛИLGA ASOSLANADI
Tumanlarni o'rganish, aholi va tadbirkorlar bilan uchrashish orgali iqtisodiy kompleks tashkilotlari boshini biriktirib, ishsizlar, kambag'al oilar bilan manzilli ishlab, ularning daromadini oshirish cho-

Bunda 817 kishi IT kurslarida o'qitilgan bo'lsa, 6 ming 783 kishiga kasb o'rgatilib, ularning bandligi ta'minlandi. Misol uchun, Kattaqo'rg'on tumani Qirg'iz mahallasiida yashovchi Sanobar Sobirova ijtimoiy reestrda turadi. U Kattaqo'rg'on shahar kasb-hunarga o'qitish markazida tikuvchilik yo'nalihsida o'qitilgach, subsidiya asosida 1 dona tikuv mashinkasi, 1 ta averlok hamda xomashyo olib berildi. Hozirda ikki kishini shogirdlikka olib, ish bilan ta'minlagan.

Ushbu yo'nalihsida Qo'shrabot tumanida amalga oshirilgan ishni alohida aytib o'tish mumkin. Chunki tumandagi Buloq mahallasiida "Sam Antep Gilam" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari ga chet tillarini o'rgatish maqsadida mahallagi 71-maktabda qo'shimcha dars mashg'ulotlari, 60 o'rni bolalar bog'chasi tashkil qilindi. Shu bilan birga, 20 ta ish o'rni yaratgan mebel sexe ishga tushirildi. Bu yerda ishchilarga har oyda 6,5-7 million so'mdan ish haqi to'lanmoqda.

Yil davomida 8 mingdan ko'proq fuqaroga xorijiy til o'rgatilib, mehnat migratsiya siga yuborildi.

FAKT VA RAQAMLAR SO'ZLAGANDA

Aslida, kambag'al oilarlarga berilayotgan ko'mak va ko'rsatilayotgan amaliy yordam faqat yugoridigilardan iborat emas. Zotan, o'tgan yil davomida qariyb 38 ming kishiga tibbyi xizmat ko'rsatildi. Ularning 5 ming 951 nafarida imtiyoziy jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Masalan, Qo'shrabot tumani Qo'rolos mahallasiida 2021-yilda tug'ilgan Umida O'rınboyeva tug'ma yurak nuqsoni bilan og'igan ekan. Ushbu qizaloq tuman tibbiyot birlashmasining o'zida viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi mutaxassislar tomonidan bepul operatsiya qilindi.

Mustaqillik mahallasiida yashovchi, 1971-yilda tug'ilgan Bahodir Abduvohidov ikki tomonlama displastik koksaortoz bilan kasallangan bo'lib, davolanish uchun moliyaviy imkoniyati bo'lmagan. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida ushbu fuqaroda ham bepul

jarrohlik amaliyoti o'tkazilib, salomatligini tiklashiga yordam berildi.

Yil davomida qariyb 11 ming fuqaroga ijtimoiy xizmat ko'satildi. Jumladan, Qo'shrabot tumani Qo'shtamg'ali mahallasida tashbaskusor tadbirdor - "Sam stroy invest" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan nogironligi bo'lgan Oysara Xidirovaga elektron nogironlik aravachasi olib berildi. Eng muhim, o'g'li "Sam stroy invest" MChJga ishga qabul qilindi. Qizi o'quv kurslariga jalg qilinib, to'lovlar to'landi.

Birgina Cho'yanchi mahallasidagi daromadi 2 million so'mgacha bo'lgan 209 nafar fuqarordan 43 nafrining kambag'allikka tushish ehtimoli mayjud. Ushbu oillalar bilan individual ishslash orqali ular uchun qo'shimcha daromad manbai yaratish lozim.

Mahalladagi fermer xo'jaligi ishchisi (mekanik) Yo'ldosh Temirovning o'rtacha oyligi 2 million so'm, 4 nafr farzandi bor. Oila rasmiy olylik ish haqidan tashqari 6 so'tix tomorqasida dehqonchilik qilib, 4 bosh qoramol va 35 ta tovuz boqish orqali har oyda qo'shimcha 1,6-1,8 million so'm daromad qiladi.

Ushbu oilaga moliyaviy instrumentlarni yo'naltirish (2 so'tixlik issiqxonasi, payvandlash ustaxonasasi) orqali qo'shimcha daromad manbai yaratiladi.

Joriy yil tumanda ajratilayotgan 62,3 milliard so'm mablag' birinchini navbatda yugoridagi kabi tofadagi 2,5 ming aholiga yo'naltiriladi.

Umuman olganda, shunday tahlilini boshqa tumanlarda ham amalga oshirib, kambag'allikka tushish xavfi mavjud bo'lgan oillarini erta aniqlab, ularga tezkor amaliy yordamlar ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

REJALAR KATTA, NATIJA SHUNGA MOS BO'LADI

Joriy yilda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 163,4 ming nafar aholi kambag'allikdan chiqariladi. Natijada kambag'al oillar soni 75,5 mingdan 56 mingtaga (7,7 foizdan - 3,5 foizga) pasaytiriladi.

Tabiysi, jarayonda ishsizlik darajasi ham pasayadi. Tahlillarga ko'ra, bu boradagi ko'rsatkich 5,2 foizdan 5 foizga tushiriladi.

"Sayxunobod tajribasi" asosida 45 mingta mikroloyiha bo'yicha kamida 10 tadan kam daromadini xonadon daromadini 60-70 million so'mdan oshirish bo'yicha loyihibar amalga oshiriladi.

Aytish mumkinki, bu borada 2024-yil davomida 36 mingga yaqin loyiha amalga oshirilib, 55 mingdan ko'proq ish o'rni yaratildi.

Misol uchun, Urgut tumani Ipkali mahallasiida yashovchi Maxsuda Axmedovaga Mikrokreditbanki tomonidan "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi" doirasida 22 million so'm kredit ajratilib, 2 so'tix issiqxona, 100 bosh parranda va 2 dona tikuv mashinkasi olib berildi. Natijada 5 kishining bandligi ta'minlanib, oila yiliga 60-65 million so'm daromad topish imkon yaratildi.

Yoki Samarcand shahri Jo'yil chuqur mahallasiidagi misolin olib ko'raylik. Bu yerda Sherzod Rasulov 100 million so'm imtiyozli kredit hisobidan shirinlik ishlab chiqarish uchun uskuna sotib oldi. Kichik sexda 4 kishining bandligi ta'minlanib, oila yiliga 60-70 million so'm qo'shimcha daromadiga ega bo'ldi.

"Uchi tajribasi" asosida banklar 9,3 mingta mijoz bilan uchrashuvu o'tkazib, ularning masalalarini hal etish orqali 9,2 ming nafar aholini doimiy ishga joylashtirishi kutiyapti.

Mazkur tajriba asosida yil davomida 500 dan ziyod uchrashuvlarda 3 mingdan ko'proq murojaat ro'yxatga olingan. Ko'rilgan chora-tadbirdor natijasida 11 mingdan ko'proq ish o'rni yaratildi.

Misol uchun, aprel oyida Narpay tumanida o'tkazilgan uchrashuvda "Samarcand Silk AO" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni rahbari 500 ming AQSh dollarri miqdorida kredit ajratish bo'yicha murojaat qildi. Murojaat Mikrokreditbanki tomonidan ijobji hal qilib berildi va qo'shimcha 212 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Joriy yilda "Zarbodor tajribasi" asosida qiymati 1953,2 milliard so'mlik 91 ta loyihi amalga oshirilib, 8 ming 14 kishiga doimiy daromad manbai yaratish re-jalashtirilmoqda.

Ushbu tajriba asosida 2024-yil davomida Samarcand tumanidagi Siyobcha kanali bo'yida zamoraviy aholi dam olish maskanlari tashkil etildi va 415 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Bundan tashqari, Past Darg'om tumanida "Qalmoqsoy" mas'uliyatni cheklangan jamiyatni tomonidan qiymati 1,5 milliard so'mlik umumiyo ovqatlanish maskani tashkil qilinib, 20 kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Bu yil "G'ijduvon tajribasi" asosida qiymati 42,4 milliard so'mlik 121 ta loyihami amalga oshirish hisobiga 1140 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Bundan tashqari, "Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida ijara ajaratilgan yer maydonlarida 40 gektardan jami 560 gektar yer maydonida loyihalarni amalga oshirish orqali mingdan ortiq aholining bandligi ta'minlanadi.

Feruz ABILOV,
viloyat hokimining birinchi o'rinosari.

QR code

O'ZBEKİSTONDA O'QISH ARZONMI?

BUGUN SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETIDA
3 MINGDAN ORTIQ XORIJLIK TALABA TAHSIL OLMOQDA.
ULARNING O'QISHI, YASHASH TARZI VA YURTIMIZ HAQIDAGI
QARASHLARI BILAN QIZIQDIK.

Chavhan Tayant,
davolash yo'nalishi 6-bosqich talabasi:

- Hindistoning Dehli shahrida tug'ilganman. Dastlab rus tilini o'rganib, Ukrainadagi tibbiyot universitetiga o'qishga kirdim va uch yil o'qidim. So'ngra urush boshlanib qolgach, o'qishimi O'zbekistoniga ko'chirdim. O'zbekistonda to'lov-shartnoma puli bizdagidan ancha arzon, shuning uchun Samarqand davlat tibbiyot universitetida o'qiyapman. Bizdagi o'rtahol oillar uchun O'zbekistonga kelib o'qish qulay.



Said Akil Ahmad,
davolash ishi yo'nalishi 5-bosqich talabasi:

- Pokistonlikman. Vatanimda tibbiyot yo'nalishida kollejini tugatib, tibbiyot institutiga hujjat topshirdim. Uch yil imtiyondan o'tlamadi, kerakli balni to'play olib qoldim. Shundan keyin chet elda o'qishni niyat qildim. Samarqand davlat tibbiyot universitetiga imtiyonsiz qabul qilindim. Bizda tibbiyot olyigohida bir yillik shartnomaning eng arzon to'ovi 7000 AQSh dollarri bo'lsa, O'zbekistonda 3800 AQSh dollarri ekan. Shu tomonlari menha ma'qul bo'ldi.



Meshram Sarang,
davolash yo'nalishi 4-bosqich talabasi:

- Mumbai shahrida istiqomat qilaman. Samarqand davlat tibbiyot universitetida o'qish uchun dastlab Hindistonda imtiyondan topshirdim. Imtiyondan o'tgach, o'qishga yuborildim. Bizda tibbiyot universitetlarida o'qish uchun yiliga 30000 AQSh dollarri miqdorida shartnoma puli to'lash kerak. O'zbekistonda esa xorijlik talabalar tibbiyot universitetida o'qish uchun shartnoma puli juda arzon. Shuning uchun shahrizodagi tibbiyot universitetida o'qiyapman.

- Bizdag'i ta'lim tizimining Hindistondagi ta'lim dasturlari bilan o'xshashlik tomonlari bormi?

Chavhan Tayant: - Ta'lim tizimi deyarli bir xil, keskin farqli jihat yo'q. Hindistonda tibbiyot sohasi qanday chucher o'rgatilsa, O'zbekistonda ham xuddi shunday o'qitiladi.

Said Akil Ahmad: - Albatta, farqi bor. Pokistonda tibbiyot sohasi talabalariga amaliyot kuchli o'rgatiladi.

Meshram Sarang: - Hindistonda darslarning vaqtga ko'p, talabalar yarim kun nazariyadan o'qisa, yarim kun amaliyotda qatnashadi. Bizda o'qish biroz qiyin.

- Xorijlik talaba sifatida nimalardan qiyalingiz?

Chavhan Tayant: - Samarcand shahri juda chiroli, ko'chalar toza, odamlari yaxshi, hamma joyda tarib-itizom bor. Shahrizod menga hamma tomonloma yoqdi. Bu yerda hecham qynalganim yo'q.

Said Akil Ahmad: - Qiyinchiligi - xorijlik talabalar har uch oyda vaqtinchalik ro'yxatda turish uchun 800 ming so'm pul to'laydi. Agar turarjoyimiz o'zgaradigan bo'lsa, yana 800 ming so'm to'lashni kuzub.

Meshram Sarang: - Avvalo, ota-onamdan uzoqda, sog'inchidan qiyaldim. Keyin shahrizodida oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak qimmat. Hindistonda esa ancha arzon.

Meshram Sarang: - O'zbekistonliklar hindcha kino va qo'shiqlarni sevib tomosha qilishadi. Boshqalar qatori bizning madaniyatimizni ham surʼatli qilishadi.

Meshram Sarang: - O'zbekistonliklar mehmono'stligi menga yodgi.

- Qaysi milliy taomlarimizni yaxshi ko'rasiz?

Chavhan Tayant: - O'zbek milliy taomlaridan jiz-biz va palovni yaxshi ko'raman.

Said Akil Ahmad: - Har juma kuni do'stlarim bilan osh yeymiz, lag'mon va Jizzax somsa menga juda ma'qul.

Meshrum Sarang: - Palov, manti, lag'mon, to'yla tayyorlanadigan shovrani yaxshi ko'raman.

- Mutaxassislik diplomini o'rganigizdan keyin O'zbekistonda qolish yoki hamkorlikda ishslash niyatiningiz bormi?

Said Akil Ahmad: - Davolash ishi yo'nalishini bitirganidan keyin nevropatolog mutaxassisligi bo'yicha magistratura o'qish niyatim bor. Agar O'zbekistonda magistratura yo'nalishining kontrakt puli qimmat bo'limasi, shu yerda o'qimoqchiman.

Meshrum Sarang: - Diplom o'qilganda keyin Hindistonga borib, imtiyon topshiranman. Utmihondan o'tsalsam, vatanim mening diplomimni tasdiqlaydi. Shuningdek, Samarcanda bir yil bolalar jarrohlik klinikasida ishslash niyatim ham bor.

Xurshida ERNAZAROVA
suhbatlashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida yangi O'zbekistonni barpo etishda beshta ustuvor yo'nalish - sifatli ta'lum tizimini yo'liga qo'yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatlari sud tizimini yaratish, sog'iqliqi saqlash sohasini tubdan yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratgandi.

Bu vazifalarning har biri niyoyatda muhim bo'lishiga qaramasdan, biz korrupsiya mavzusida fikr bildirishni lozim topdik. Chunki bu masala qolganlari bilan chambarchas bog'liq. Zero, korrupsiyan jilovlamasdan, undan xoli adolatlari sud tizimini yaratmasdan turib, ta'lim va tibbiyotdan tortib, biznesda ham, ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham ko'zlagan maqsadimizga, samarali natijaga erishib bo'lmaydi.

SOVG'A KO'RNI KO'RADIGAN QILADI

Bugungi kunda korrupsiya dunyodagi barcha mamlakatlardan taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotgan illatlaridan bira sifatida namoyon bo'lmoxda. Korrupsiya bu - mansab mawqeidan shaxsxiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanib, jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaqa oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat mamlakatdemokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazib, inson huquqlari buzilishiha olib keladi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, insoniyat xavfsizligiga tahdid solish orqali mamlakatdagi barqarorlikka putur yetkazadi.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur halollik, rostlikka mamlakatda ichki va tashqi siyosat yuritishda, oila tarbiyasida, dinu diyonatga roya etishda bosh qadriyati sifatida alohida e'tibor qaratqagan. Amir Temurning tuzuklari "Rosti rusti", degan yozuv ham "Kuch to'g'rilikdadir", degan ma'noni ifoda etgan. Adolat so'zi ham arab tilida "halol, to'g'ri, rost, haqqoniy" degan ma'lorni ifoda etib, saltanatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohot hamda o'zgarishlar yanan adolat, halolikni o'natsishga da'vat etgan.

Tarixiy manbalarda "korrupsiya" dastlab qadimgi Xitojoy paydo bo'lganligi qayd etiladi. Qadimgi Shuver davlati dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchidagi sifatida tan olinadi. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, eramizdan avvalgi VI asrda hukmadorlik qilgan Eron shohi Kamibz saltanat qozisi Sizamni pora olgani uchun terisini shilib olishini va u o'tirgan qoziligi kursisini o'sha teri bilan qoplashni buyurgan. Qozilik lavozimi niyoyatda mas'uliyatlari ekanligi, poraxo'rlikning oqibati qanday yakun topishini hamisha yoddah tutishi uchun Sizamning o'g'li Otanni qoziligi lavozimiga tayinlagan.

Qadimda din va diniy ta'lomitlarda ham poraxo'rlik qattiq qoralangan. Xristianlikning muqaddas kitobi Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rnii ko'radian qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deya ta'kidlansa, muqaddas Qur'oni karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'lli bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan naarsalar olish uchun o'z mulkingizdan hokimlariningizga pora qiliq uzatmangiz" deya qayd etilgan.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR KONVENTSIYAGA 173 DAVLAT QO'SHILGAN

Bugungi kunda yer yuzidagi barcha davlatlari o'z hududidagi holat va sharoitdan kelib chiqib, bu illatga qarshi turli usullarida kurash olib boradi. 2003-yil 9-dekabrda Meksikaning Merida shahrida dunyo miyosida yuqori darajadagi siyosiy konferensiya o'tkazilgan edi. Mazkur konferensiyada dunyoning 100 dan ortiq davlat vakillari tomonidan BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" imzolandi. Hozirgi kunda mazkur sana BMT Bosh Assambleyasini tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro kuni" sifatida e'lon qilingan. Ushbu konvensiyaga dunyoning 173 ta davlati a'zo bo'lgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi konvensiyaga 2008-yil 7-iyulda qo'shilgan.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga bir trillion dollarдан ortiq mablag' o'zlashtirilishi aniqlangan.

Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda ham korrup-

TARAQQIYOT KUSHANDASIGA qarshi qanday kurashmoq lozim?

siyaviy jinoyatlar sodir etilishi kuzatilgan. Xalqaro miyosida korrupsiya, uning tarqalganligi darajasi hamda jamiyat va davlatga keltiradigan zararini baholash borasida keyingi yillarda xorijiy davlatlarda keng tadqiqotlar olib borilmoida.

Xitoy korrupsiya jinoyatlar, pora va davlat mulkini o'zlashtirganligi uchun dunyodagi eng og'ir jazo tayinlanadigan mamlakat sifatida qayd etiladi. Ushbu mamlakatda bu turdagi jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan bo'lib, pora olgan amaldorning qo'li chopib tashlanishi ham mumkin. Yaponiyada esa mazkur illat bilan shug'illangan mansabdor shaxslar va siyosiy rahbarlar jamoatchilik tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi. Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan shug'ibor, noto'g'ri(tuhmatdan) xabar berish ham, pora oluvchilarga nisbatan belgilangan jazoga – uch yil muddatga katorga jazosi yoki jarima jazo-siga tortilishi mumkin.

AQSh jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotning xizmatchilar – mansabdor shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora organlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Mamlakatda poraxo'r aybdor olgan porasining uch barari miqdorida jarimaga tortilidi yoki 15 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. Buyuk Britaniya qiroligida korrupsiya jinoyatini sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxs 3 yildan 7 yilgacha qamoq jazosiga hukm etilib, "xizmat evaziga" olingan pul yoki olgan sovg'asi miqdorida jarimaga tortiladi. Germaniyada esa, poraxo'r amaldor uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi, tamagirlik qilgan sudyalar esa 10 yil qamoqda o'tirishi mumkin.

MHD mamlakatlarda ham korrupsiya darajasi juda yuqorigi qayd etiladi. Bugungi kunda xalqaro hamjamayat Rossiyani dunyodagi korrupsiya eng "tarraqiy" etgan 50 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etgan. Rossiyada korruption holat bo'yicha shug'illangan shaxslar olgan porasining 80 dan 100 baravarigacha jarimaga yoki 8-15 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi mumkin.

Taiandalda 2015 yilda qabul qilingan "Korrupsiya haqida"gi qonuniga ko'ra, katta miqdorda pora olgani usibotlangan aybdor xoh mamlakat fuqarosini bo'lsin, xoh xorij fuqarosi, o'lim jazosiga hukm etilishi belgilangan.

Birlashgan arab amrligida korrupsiya va o'g'irlik jinoyatidagi sifatida etgan shaxsnинг qo'li kesilishi ko'rsatish o'tilgan bo'lsa, Eronda poraxo'r amaldorlar osib o'diriladi. Bu jazo mamlakatning Tehron, Mashhad va Isfaxondagi Adolat uylari ro'parasidagi maydonda omma ko'z o'ngida ijro etiladi. Mamlakatda pora kichik yoki katta miqdorga ajaratilaydi, bu jinoyat uchun jazo faqat shu! Ayrim hollarda aybdorning qo'li kesilishi ham mumkin.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo iqtisodiyoti korrupsiyadan 2,6 trillion dollar miqdorida zara ko'rmoqda.

BIZDA-CHI? KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGI QANDAY?

Xorijiy mamlakatlardan tajribasining ko'satishicha, korrupsiyaga qarshi kurashni faqatgina davlat hokimiyyati organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi idolarlar zimmasiga yuqub qo'yish korrupsiya ko'laming kengayishiga olib kelgan. Chunki ushbu idoralarning korrupsiyani bartaraf etish bilan bog'liq faoliyatida muayyan muddatda jo'obiyl natijalarning sezilmasligi aholi orasida huquqiy nizigizmni keltirish chiqarishi ehtimoliyu yuqori. Chunki bunday holat jamoatchilikni davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashib, uni yengolmayotgan ekan, demak, buni bartaraf

qilib bo'lmaydi, degan xulosaga olib keladi. Korrupsiyaga qarshi kurash befoyda, degan kayfiyatning hukm surishi esa aholining muayyan qismida korrupsiyaga qarshi kurash emas, unga moslashish kerak, degan xulosani keltirib chiqarish mumkin.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda korrupsiyaga qarshi samarali kurashni tashkil etish, jamiyatda korrupsiyaga toqatsizlikni shakllantirish, davlat xizmatchilarida halol-

lik vaksinasini oshirish, bu illatga jamiyatimizdagidagi barcha sohalarda chek qo'yish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari xodimlarining ijtimoiy himoya qilinishi, moddiy ta'minoti va rag'batlantirilishini kuchaytirishga qaratilgan choralar ko'rildi. Davlat xizmatchilarining ish haq qo'rtacha qarib 60 foizga, ayrim sohalarda esa bi'r necha barobarga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalariga asosan barcha vazirlik va idoralarda odob-axloq me'yordilar tasdiqlandi.

Xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlanirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlanirish agentligi tashkil etilib, davlat xizmatiga meritorikati prinzipiga asoslangan "karera modeli"ni va xizmatga qabul qilishda ochiq tanlovlardan etish ishlari boshlandi.

Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tarbijati-mamlakatlardan soddalashtirish hamda ularning tezkorigini oshirish maqsadida hudojdarda davlat xizmatlari markazlari orqali aholiga xizmat turlari bo'yicha shaffof, quvayla tezkor davlat xizmatlari ko'r-satilmogda.

Jamiyatdagi muammolarga yechim topishda ja-moatchilik nazoratiga tayanish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jinoyat, jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarlar haqidagi xabar bergan shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida 2019 yilda "Jabranuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtiroychilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofig, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Bosh prokuratura Akademiyasiga 2022 yil 1 yanvardan boshlab "halollik vaksinasi" tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarida o'qitish tizimi joriy etildi. Maxsus elektron o'quv platformasi ishga tushirilib, u orqali davlat xizmatchilarini masofadan turib o'qitish hamda xususiy sektor vakillari va aholining korupsiyaga qarshi kurashish borasidagi bilimlarni oshirish amaliyoti yo'lgan qo'yildi.

Bugungi kunda korrupsiya xalqimiz ma'naviyatiga, kelajakdagi istiqboliga nisbatan salbiy ta'sir etuvchi tahdid sifatida namoyon bo'lmoxda. O'z navbatida, korrupsiya holatlarini bartaraf etishda jamiyatimiz hayotida aholining keng qatlamlarini mazkur illatiga qarshi g'o'yaviy-mafkuvayli qurollantirish uchun ijtimoiy-siyosiy, ma'nativy-ma'rifiy va huquqiy sohadagi ishlarmizni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shokir G'AFFOROV,
Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti professori, tarix fanlari doktori.
Mansur MUSAYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'nativy tadjiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori (DSc).

Davrimiz ziyolisi

Til rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan olim, professor Rustam Jo'raqulov 65 yoshni qarshi oldi.



R.Jo'raqulov 1960-yilda Urgut tumani

G'os qishlog'iida dunyoga keldi.

69-o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab,

1978-yilda Samarqand davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. Talabalik davridayog ilmiy

tadjiqot ishlarni boshlab, institutni bitirgach, taniqli olim, professor Anatoliy Bushuy rahbarligida "O'zbekiston ertaklari" nomli uch tomlili bibliografik ko'sratichini nashrdan chiqardi.

Yosh iqitidor sohibi pedagogika institutida 1983-yildan 1994-yilgacha katta laborant, assistent-o'qituvchi lavozimlarida ishladi. O'zing ilmga chanqoq, yangilikka intiluvchanligini namoyish qilib, institut olimlarining uchta ilmiy to'plamiga muharrirlik qildi. 1989-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatlari himoya qildi.

Ustoz 1994-yildan 2011-yilgacha Mahmudova Behbudiy nomidagi Samarqand viloyat pedagogikadawlari qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida o'zbek jaahon tili kafedrasida katta o'qituvchisi, maktabgacha va boshlang'ich ta'lum kafedrasini mudiri lavozimlari dafaolyat ko'sradi.

R.Jo'raqulov 2011-yildan boshlab Samarqand davlat chet tillar institutida faoliyatini davom ettirib, rus filologiyasi kafedrasida rus tili va adabiyoti fanlaridan talabalarga dars berib kelmoqda.

Olim "Ta'lum tizimida mustaqil faoliyatni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy-tadqiqot izlanishlarini olib bormoqda.

R.Jo'raqulovning ilmiy-uslubiy ishlari ma-jmuasidan mamlakatimizda lotin yozuv asosidagi yangi alifboni o'rganishga mo'ljalangan birinchi darslik - "Istiqlol alifbos", yangi alifboda o'qishni o'rganuvchilar uchun "Qaytar dunyo", "O'zbek tili", 1-4-sinflar uchun "Kitobim-oftobim" (Xazina) sindan tashqari o'quv qo'llanma, "Kam komponentli sinflarni tashkil etish va ushu sinflarda o'qitish metodikasi", "Yillik o'quv rejalar va majburiy standart nazorat ishlari", "Rus tili", "Amaliy rus tili" kabi respublika miyosida chop etilgan o'nlab darslik-qo'llanmalar joy egallagan. Shuningdek, uning ilg'or tajribalar asosida 100 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan.

Ustoz namunali oila boshlig'i, 6 nafar farzandning otasi, 17 nafar nevaraning sevimli bobosi.

Zahmatkash olim, mohir pedagog Rustam Jo'raqulovning kelgusi faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz. Tavallud kuningiz muborak bo'lsin!

Gulnoza JO'RAQULOVA,
Temur SULAYMONOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchilarini.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londan tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAVOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravona notarial idorasida marhum Yunusov Ixtiyor Axtamovichga (2024-yil 28-iyulda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravona notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zairovna notarial idorasida marhum Abdullayev Sodikga (1998-yil 22-avgustda vatof etgan) tegishli mol-m

EHTIYOT BO'LING, KEYINGI BEKAT - MEHRSIZLIK

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Shuningdek, mazkur kodeksning 110-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin sardor, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Oila kodeksidagi bu band mavjudligidan ko'phchilik xabardor. Ammo uning sud qarori orqali iro etilayotgani haqida eshitib qolsak, ajablanishimiz aniq.

Afsuski, bunday misollari ko'p. Ularning har buri o'rganishiga, nega bu holga kelgani haqda taftish qilishga arziyi. Chunki ularning ba'zilarda faqat bir oilaga emas, jamiyatga daxilidor muammollar ham mujassamdir. Farzandan sud qarori assosida aliment oladigan bir onaxon tahririyatga shunday muktub bitibdi:

"Qariyb 20 yil davomida Turkiyada ishlab, topganlanni uya, yakkayu yagona qizimga jo'nataverdim. Bu pullarga qizim o'z nomiga

2024-yilda viloyatda
4659 ta oilaviy ajrim qayd
etilgan. Buning oqibatida 4194
nafar bola ota yoki onasiz bo'lib
qolgan. Ajrimlarning 1192 tasi
30 yoshgacha bo'lgan yoshlar
o'rtasida yuzaga kelgan.

uy va boshqa mol-mulklar xarid qildi. Bunda 3-4 yil avval sharoitlarimiz ham badastir bo'ldi, qolaversa, o'zim ham og'ir mehnatga yaramay qoldimi va uya qaytdim. Afsuski, hamma tashvishlarim shundan keyin boshlandi. O'z farzandim endi men bilan yashashni istamasdi, unga xalaqit qilayotgandim. O'z pulimga olingan udan meni quvmoqchi bo'ldi. Ruhiy kasal, deya shifoxonaga yotqizmoqchi bo'lganlarini aytmay qo'ya qolay.

Har tomonlama qiyinalib qoldim, axir hayotim-

ning eng kuchga to'lgan davrini yolg'iz qizim qiyalmasini, deya chetda, mehnatda o'tkazdum, uning ketajagi uchun mol-mulkli bo'ldik. Lekin... Keyin qizimni menga alimon to'lashi uchun sudga berdim, sud qarori chiqqidi.

Hozir o'z uyminda yashayapman, ammo mudom xavotirdaman, uyni o'z nomimga o'tkazib olishga yordam bera olmaysizlarmi?"

Bunday holatlar goh mana shunday oshkora, goh yashirin, oila ichida sodir bo'layapti. Xorijda mehnat qilish, daromad topishga majbur bo'layotgan ayollar afsuski, olsida mehrni qaror toptoliyapti. Bunga farzand ta'minotini bo'yniga olmayotgan otalar, xotin-qizlarning kasb-hunariga e'tiborsizlik qilib, ularni erta turmushga berib yuborayotgan ota-onalar sabab bo'lmayaptimikan?

Lekin bir holatga e'tibor bering: u yoki bu kamchiligimni bartaraf etib, keyin kela-man, deb ishga ketayotgan ayollar bu yethishmovchiligi uchun yo'qotayotganlari ko'p bo'lsa-da, xorijdan qaytish haqida o'yalamayapti. Ular oиласидаги keyingi bekat mehrsizlik bo'lishidan qo'rqmasmikan?

Gulruh MO'MINOVA.

Bolani urish MUMKIN EMAS

Ijtimoiy tarmoqlarda ota-onasi tomonidan kaltaklangan yo turli jismoniy tazyiqlar o'tkazilgan bolalar haqidagi xabarlarga ko'zimiz tushadi. Ular bo'yicha jamoatchilikning fikri turlicha. Ayrimlar buni jinoyat desa, boshqalar tarbiya usuli deb atamoqda. Xo'sh, bolalarni kaltak orqali tarbiyalab bo'ladimi? Buning oqibatlari qanday?



ni olish uchun O'zbekiston Respublikasi Oly Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar Ombudsmani) faoliyati yo'liga qo'yilgan. U bolaning huquqlari, erkinliklari va qonunyu manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlari va qonunyu manfaatlarini tiklash singari muhim vazifa va vakolatlarga ega. Bunday institut asosan dunyoning rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Avstriya, Belgiya, Germaniya, Duniya, Islandiya, Ispaniyada mavjud va o'z samarasini bermoqda.

Mutaxassislar bolalar bilan shug'ulananishda avvalo, uni alohida shaxs sifatida qabul qilib, his-tuy'ulari bilan hisoblashishni maslahat bermoqda. Shundagina yoshlar mustaqil va kuchli shaxs bo'lib ulg'ayadi. Ijobiy tarbiya usullari, masalan, mukofotlash, rag'batlanishir va tushuntirish orqali ham jarayonda samarali natijalarga erishish mumkin.

Aytish joizki, farzandiga nisbatan jismoniy tazyiq o'tkazgan ota-onalar qonun bo'yicha javobgarlikka tortilishi ham mumkin. Ko'plab mamlakatlar da bolalarni urish va ularga nisbatan jismoniy jazoni qo'llash qonun bilan taqilangan. Masalan, Qozog'iston Respublikasi Oila kodeksining 75-moddasiga ko'ra, bolaga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'ravonlik(urish) harakatlarini amalga oshirish ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi uchun asos bo'la.

Yurtimizda ham bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashning qonuniy asoslari yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 79-moddasiga ota-onalik huquqini sisiuste'mol qilgan, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lgan, jumladan, ularga jismoniy kuch ishlatgan yoki ruhiy ta'sir ko'sratgan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi uchun asos bo'la.

Yurtimizda ham bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashning qonuniy asoslari yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 79-moddasiga ota-onalik huquqini sisiuste'mol qilgan, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lgan, jum-

ladan, ularga jismoniy kuch ishlatgan yoki ruhiy ta'sir ko'sratgan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi uchun asos bo'la.

Charos EShMAMATOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.

ning eng kuchga to'lgan davrini yolg'iz qizim qiyalmasini, deya chetda, mehnatda o'tkazdum, uning ketajagi uchun mol-mulkli bo'ldik. Lekin... Keyin qizimni menga alimon to'lashi uchun sudga berdim, sud qarori chiqqidi.

Hozir o'z uyminda yashayapman, ammo mudom xavotirdaman, uyni o'z nomimga o'tkazib olishga yordam bera olmaysizlarmi?"

Bunday holatlar goh mana shunday oshkora, goh yashirin, oila ichida sodir bo'layapti. Xorijda mehnat qilish, daromad topishga majbur bo'layotgan ayollar afsuski, olsida mehrni qaror toptoliyapti. Bunga farzand ta'minotini bo'yniga olmayotgan otalar, xotin-qizlarning kasb-hunariga e'tiborsizlik qilib, ularni erta turmushga berib yuborayotgan ota-onalar sabab bo'lmayaptimikan?

Lekin bir holatga e'tibor bering: u yoki bu kamchiligimni bartaraf etib, keyin kela-man, deb ishga ketayotgan ayollar bu yethishmovchiligi uchun yo'qotayotganlari ko'p bo'lsa-da, xorijdan qaytish haqida o'yalamayapti. Ular oиласидаги keyingi bekat mehrsizlik bo'lishidan qo'rqmasmikan?

Gulruh MO'MINOVA.



"Zarafshon"ning maxsus sahifasi

Akating singil oldidagi mas'uliyati:

- Shamollab qolma tag'in, yengil kiyinibsan...

Sog'lam turmush tarzi uchun

RAHBARLAR

tashabbus ko'rsatishi kerak

40 yildan buyon sport bilan shug'ullanaman.

Har bir inson o'zingin

jismoniy faolligini

oshirishdan oldin

maqsadi nimaligini

anglab yetishi kerak.

Misol uchun, birovlar

shunchaki jismon

yaxshi holatda yurishni,

kimdir sportchi bo'lishni,

yana ayrimlar ozhishni, kimdir kasal bo'limaslikni xohlaydi.

Albatta, bularning barchasiga erishish uchun jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish kerak. Biroq sportchi bilan havaskor bajarayotgan harakatlarda farq bor.

Hozir odamlarda asosan harakatsizlik va jismoniy faoliyk kamayib ketgan. Buning ortidan turli kasalliklar ham kelib chiqyapti. Ayniqsa, korxona va tashkilotlarda ishlaydiganlarda bunday holatni ko'p uchratish mumkin. Aksariyat tashkilotlarda sharoit yaratilgan, ammo sport bilan shug'ullanish muntazam yo'iga qo'yilmagan. Har bir tashkilot rahbari xodimlarining sport bilan shug'ullanishiga doimiy e'tibor berib, sog'lam turmush tarziga amal qilishini nazorat qilsa, xodimlarning jismoniy faoliigi va ish unumдорлиги ham oshadi.

Yelena ASLANOVA,

II darajali «Sog'lam avlod uchun» ordeni sohibasi.

2024-yilda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga 2227 ta himoya orderlari berilgan. Xotin - qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning 1982 tasi oilda, 196 tasi ko'chada, 18 tasi jamoat joylarida, 15 tasi ta'lum muassasalarida va 16 tasi mehnat jamaolarida, ya'ni ish joylarida sodir etilgan.

Xastaliklarning sabablari ko'p...

Biror kishi kasal bo'lib qolsa, darrov shifokorga boradi. Dori-darmon xarid qilib, muolajani boshlab yuboradi. Lekin bu dard nega paydo bo'ldi, asl sabablari nimada? Bu xususda chuqurroq o'ylab ko'rmaydi.

Fikr qilaylik, ba'zi xastaliklarga ko'p siqilish yoki noto:g'ri ovqatlanish, shuningdek, kam harakat yoki biror yuqumli kasallikni yuqtirib olish sabab bo'ldi. Ayrim hollarda esa salbiy odatlar dardni yuqtirib olishga olib keladi. Kasallikning paydo bo'lishida irlari yomillar ham yetakchi rol o'ynaydi. Demak, bular haqida bosh qotirib ko'rish kerak.

Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida sog'liqni saqlashning asosiy 7 ta omilini yozib qoldirgan. Ular quyidagilar:

1. Tanani yaxshi muhitda saqlash.
2. Iste'mol qilinadigan ovqatni va ichiladigan suvni to'g'ri tanlash.
3. Organizmni ortiqcha moddalardan tozalash.
4. Tana tuzilishini saqlash.
5. Burun orqali to'g'ri nafas olish.



6. Kiyiladigan libosni to'g'ri tanlash.

7. Jismoniy va ruhiy holatni bir me'yorda tutish.

Xullas, kasalliklardan saqlanish uchun aynan nima sababli dardga chalinishimiz haqida o'ylab ko'rishimiz zarur.

O'zimizni yaxshi ko'rsak va sog'ligimiz uchun qayg'ursak, albatta, sog'lam turmush tarzi qoidalariga rioya etishimiz kerak. Kun tartibimizni oqilona belgilash esa o'zimizning jismoniy shakllantiradi va salomatlik sari muhim qadamni qo'yamiz.

Maqolaning to'liq matnini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin



Sayfulla ABDULLAYEV, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Bir kunda qancha sabzavot iste'mol qilasiz?